

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**qo'lyozma huquqida
UDK: 336.2:6P2.15.7:338(575.1)**

ZOXIDOV ISMATJON YUNUSJON O'G'LI

**YER QA'RIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA SOLIQ
MAXANIZMNING ROLINI OSHIRISH MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A S I Y A

**Ilmiy rahbar:
PhD., dotsent Babaev Sh.B.**

Toshkent – 2025-yil

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
I BOB.	YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHI KORXONALARNI SOLIQQQA TORTISHNING NAZARIY MASALALARI....	12
1.1-§.	Yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solishning nazariy asoslari.....	12
1.2-§.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlarning ilmiy-tadqiqotlar sharhi.....	26
	Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	40
II BOB.	YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQNI UNDIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	43
2.1-§.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning fiskal xususiyatlari.....	43
2.2-§.	Soliq to'lovchilarning moliya-iqtisodiy faoliyatining yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushmlariga ta'sirining tahlili	56
2.3-§.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirishda soliq nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish holati tahlili.....	75
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	90
III BOB.	YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQNI UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	93
3.1-§.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning xorij tajribasi.....	93
3.2-§.	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari.....	109
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	131
	XULOSA.....	134
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	137
	ILOVALAR.....	

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Yer qa'ri boyliklarini asrab avaylash, ularning samarali foydalanishda nafaqat ma'muriy usullar, shuningdek, samarali iqtisodiy usullar sifatida soliq mexanizmidan foydalanish jahon amaliyotida keng ustuvorlik berib kelinmoqda. Bu borada yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq turi aksariyat davlatlarda undirilmoqdaki, bundan asosiy maqsad birinchidan, yer qa'ridan foydalanuvchilarni bu resurslardan samarali foydalanishga undash bo'lsa, ikkinchidan, davlat byudjetini daromadlar bilan muntazam ta'minlab turishdan iboratdir. "Jahon bankining ma'lumotiga asosan, toza energiya texnologiyalariga oshib borayotgan talabni qondirish uchun grafit, litiy va kobalt singari minerallar 2050-yilga kelib deyarli 500 foizga oshishi mumkin"¹. Demak, yer qa'riining foydali va yuqori qiymatli va naflilik resurslariga dunyoda talab oshmoqdaki, soliq siyosatining oldiga bu jarayonni tartiblash va rag'batlantirish borasida ustuvor vazifalar belgilanmoqda.

Yer qa'ridan samarali foydalanish muammolari bilan texnik, yer tuzish va melioratsiya yo'nalishidagi fanlar bilan bir qatorda iqtisodiy fanlar doirasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, soliq tizimi orqali ulardan samarali foydalanishda samaradorlikni ta'minlash va bu borada soliq to'lovchi tadbirkorlarning ma'suliyati soliq mexanizmlari orqali oshirish masalalari bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari jahonda ustuvorlik kasb etmoqda. Bu borada jahon amaliyotida turlicha iqtisodiy va ma'muriy usullardan keng foydalanishiga qaramasdan ilmiy tadqiqotlar ob'ektida samarali soliq mexanizmlarini joriy etish bog'liq ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda yer qa'ridan samarali foydalanishni rag'batlantirish va tartibga solishda bir qator hukumatning muhim qonun va me'yoriy hujjatlari qabul qilindi, yerdan samarali foydalanishga undovchi iqtisodiy-huquqiy normalar kuchaytirildi, bu boradagi raqamlashtirish borasida yangi qadamlar tashlandi, ammo, tahlillar ko'rsatishicha, bu boradagi yetarlicha muammolar saqlanib qolinmoqda. Yer

¹<https://pubdocs.worldbank.org/en/961711588875536384/Minerals-for-Climate-Action-The-Mineral-Intensity-of-the-Clean-Energy-Transition>.

qa'ridan samarali foydalanishda boshqa omillar singari soliq mexanizmlarining rolini oshirish masalasi har qachongidan ham oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-oktabrdagi PF-6319-son "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantirish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilganidek, "zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish hamda yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan va ekspertlarni jalb qilgan holda, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibini yanada takomillashtirish"² kabi vazifalarning ijrosini ta'minlash soliq tizimida bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 6-oktabrdagi PF-6319-son "Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag'batlantirish va yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-son "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 26-dekabrdagi PQ-4078-son "Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 25-sentyabrdagi PQ-3286-son "Suv ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 24-apreldagi PQ-5083-son "Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va respublika mineral-xomashyo bazasini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentyabrdagi 720-son "Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashning hamda davlat budjeti daromadlarini oshirishning

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 октябрдаги ПФ-6319-сон "Геология-қидирув ишларини янада рағбатлантириш ва ер қаъридан фойдаланувчиларга солиқ солиш тартибини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. – www.lex.uz

qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 2-avgustdagi 483-son “Noruda foydali qazilmalardan samarali foydalanish va ularni hisobga olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 25-martdagi 133-son “Yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yer qa’ridan samarali foydalanishda soliq mexanizmining rolini oshirishga qaratilgan oid ilmiy-nazariy yondashuvlar, shuningdek, bu boradagi yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish bilan bog‘liq keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar I.Yanjul, M.Fridman, S.Ilovayskiy, E.Seligman, M.Pinskaya, Simond de Sismondi, S.Vitte, A.Agrawal, C.Rosell, T.Simcoe, S.Appelt, M.Bajgar, Ch.Criscuolo, V.Panskov, G.Agasandyan, I.Gasanov, F.Ereshko, V.Baturin, Y.Berger, Y.Melnikova, G.Golovanov singari xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan³. Shu bilan birga o‘zbek olimlaridan

³ Янжул И.И. Основные начала финансовой науки. – М., 1904., Фридман М.И. Конспект лекций по науке о финансах, Налоги, Выпуск II, СПб., Учебник финансового права. Иловайский С.И. – Одесса, – 1904 г. // Allpravo.Ru - 2005., Селигман Э. и Стурм Р. Этюды по теории обложения. СПб., 1908., Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложение. М.: 2004., Симонд де Сисмонди. Новые начала политэкономии. М., 1897., Витте С.Ю. Конспект лекций о Государственном хозяйстве. СПб., 1914., Agrawal, A, C Rosell and T Simcoe (2020), «Tax Credits and Small Firm R&D Spending», American Economic Journal: Economic Policy 12(2): 1-21; Silvia Appelt, Matej Bajgar, Chiara Criscuolo, Fernando Galindo-Rueda. «Effectiveness of R&D tax incentives in OECD economies» 14 October 2020; Appelt, S, M Bajgar, C Criscuolo and F Galindo-Rueda (2020), «[The effects of R&D tax incentives and their role in the innovation policy mix: Findings from the OECD microBeRD project. 2016-19](#)», OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 92, OECD Publishing, Paris. Богданова Г.А. Проблемы использования налоговых льгот // Молодой ученый. – 2015. №11. – С. 759-761; Berbel J. et al. (2019) Analysis of irrigation water tariffs and taxes in Europe / WaterPolicy 21 - PP. 806-825.; Brown L, Ayres E. (Edit) The World Watch Reader on GlobalEnvironmental Issues. N.Y. - London: W.W. Norton Co., 1998. 358 p.; S.Sen and H.Volleberg. The effectiveness of taxing the carbon content of energyconsumption. Journal of Environmental Economics and Management 92 (2018) 74–99. (<https://www.sciencedirect.com>)., Gleick P. H.Global freshwater resources: soft-path solutions tor the 21-th century // Science. 302. No5650. 2003. P. 1524-1527., [Ефимова Е.Г., Поспелова Е.Б. Налоги и налогообложение: Учебное пособие. – М.: МИИР, 235с. 2014](#); Городникова В.,

E.F.Gadoev, Sh.A.Toshmatov, S.K.Xudoykulov, N.B.Ashurova, U.X.Normurzaev, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, D.Qurbanov, G'.Safarov, N.Djulibekov, X.Bazarov, A.Tursunboev singari olimlar ham O'zbekiston sharoitida tabiiy resurslarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo'llanilishi, jumladan, ularni soliqqa tortish masalalari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar⁴.

Jumladan, V.Baturin, energetika sohasida yer qa'ri boyliklaridan foydalanish masalalari va ularni soliqqa tortish masalalarini tahlil qilgan bo'lsa, Y.Berger esa neft qazib olish sohasini soliqqa tortish muammolarini tahlil qilgan, o'z navbatida, mahalliy olimlardan A.Tursunbaev yer osti boyliklarini hisobga olish va soliqqa tortish muammolarini tadqiq qilgan, G'.Safarov esa, tabiiy resurslarni soliqqa tortishning muammolari bilan bog'liq kengroq tadqiqotlar olib borgan bo'lsa, X.Bazarov tabiiy boyliklarni soliqqa tortish masalalarining tadqiqiga oid ilmiy ishlar olib borgan. Biroq, yer qa'ridan samarali foydalanishda soliq mexanizmidan

Гохберг Л. М., Грачева Г. А. [и др.] Зарубежный опыт, тенденции и предпосылки развития в России налогового стимулирования НИОКР / Н. // Теория и практика общественного развития. 2012. № 10. – С. 27–28; Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. Ред. 4-е изд. – М., 2011. - 558 с.; Пансков В.Г. Налогообложение природных ресурсов: проблемы и пути решения. Журнал Экономика и бизнес, 2018, ст. 91-104., Агасандян Г.А., Гасанов И.И., Ерешко Ф.И. Новые подходы в проблеме комплексного управления водными ресурсами. – М.: ВЦ РАН, 2003. -54 с.; Батурин Владимир Юрьевич Управление налоговой политикой в топливно-энергетическом комплексе (на примере Тюменской области) Специальность - 08.00.05. - экономика и управление народным хозяйством. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2005. стр. 28., Бергер Екатерина Владимировна. Рентные платежи нефтедобывающих предприятий при недропользовании. Специальность: 12.00.14 — административное право, финансовое право, информационное право Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук Омск-2006, стр. 11., Мельникова Юлия Васильевна. Регулирование ресурсно-рентного налогообложения Российских недропользователей. Специальность: 08.00.10 - "Финансы, денежное обращение и кредит". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саратов – 2011, стр. 19., Голованов Георгий Русланович. Правовое регулирование налога на добычу полезных ископаемых. Специальность 12 00 14 - административное право, финансовое право, информационное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук, Москва-2009, стр. 28.

⁴ Гадоев Э.Ф. ва бошқ. Билвосита солиқлар: қўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. – Т.: Norma, 2011. – 327 б.; Тошматов Ш.А. Қўшилган қиймат солиғи. Монография. – Т.: Иктисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2004. - 160 б.; Курбанов Д.Р. Ўзбекистонда сув ресурсларидан оқлона ва самарали фойдаланишни молиявий дастаклар ёрдамида рағбатлантиришни такомиллаштириш. Монография. – Т.: Vneshinvestprom, 2021. - 256 б., Сафаров Ғиёсиддин Абдуллаевич. Табиий ресурс ва мол-мулкларни солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. 08.00.07 – «Молия, пул муомаласи ва кредит» (иктисодиёт фанлари) иктисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати тошкент – 2023 йил, 74 б., Джулибеков Нурмат Каршибекович. Кон-металлургия санвати корхоналарини солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. 08.00.07 – «Молия, пул муомаласи ва кредит» Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ Тошкент шаҳри – 2022 йил, 57 б., Базаров Хуршид Мирзажанович. Табиий бойликлардан самарали фойдаланишда солиқ тизимининг таъсирчанлигини ошириш йўллари. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2023, 58 б., Турсунбоев Амирдин Юлдашевич. Ер ости бойликларини ҳисобга олиш ва солиққа тортишни такомиллаштириш. 08.00.07 – “Молия, пул муомаласи ва кредит” ихтисослиги бўйича иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферати. Тошкент, 2023 йил, 31 б.

samarali foydalanishga oid ilmiy tadqiqotlarga ilmiy ehtiyoj hamon yuqoriligicha saqlanib qolinmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yer qa'ridan samarali foydalanishda soliq mexanizmidan samarali foydalanishga oid ilmiy oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yer qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solishning nazariy asoslarini yoritib berish;

yer qa'ridan samarali foydalanishda soliqlarning rolini ochib berish;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlarning ilmiy-tadqiqotlarni ilmiy tahlil qilish;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning fiskal xususiyatlari ko'rsatib berish;

soliq to'lovchilarning moliya-iqtisodiy faoliyatining yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumlariga ta'sirini tahlil qilish;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirishda soliq nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish holati tahlil qilish;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirishning xorij tajribasini qiyosiy tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish istiqbollarini ko'rsatib berish;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berish.

Tadqiqotning ob'ekti yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish amaliyoti va ularni to'lovchi korxonalar faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq orqali samarali soliq mexanizmi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik guruhlash, ilmiy abstraksiyalash, umumlashtirish kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq to'lovchi tomonidan qazib olingan tabiiy gazni va (yoki) neftni mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida qayta ishlashni amalga oshirgan hollarda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalardan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib, ularga soliq to'lovchi tomonidan sarflangan dastlabki ishlov berish, ularni qayta ishlash va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlash orqali soliq bazasini aniqlash mexanizmini takomillashtirish va byudjetga qo'shimcha mablag'larini jalb qilish asoslangan;

Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) tasarrufidagi yangi konlar uchun soliq stavkasini amaldagi 7% dan 10% ga qadar oshirish orqali soliqlarning adolatlilik tamoyilini ta'minlash hamda yer qa'ri boyliklaridan milliy manfaatlar yo'lida samarali foydalanish taklifi ilmiy asoslangan;

sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh uchun soliq stavkasining pasaytirilishi ta'sirida yuridik shaxslar tomonidan yangi qurilish ob'ektlarining qiymatini kamaytirish, boshqa tomondan, qurilish ishlarini olib borayotgan jismoniy shaxslarning xarid qobiliyatini qisman oshirish orqali milliy iqtisodiyotda sement mahsulotiga bo'lgan talabni soliq mexanizmi orqali tartibga solish asoslangan;

noruda metallar bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'murchiligini amalga oshirish uslubiyoti yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni o'z vaqtida byudjetga tushishini ta'minlash, bevosita shaklda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bazasini to'g'ri hisoblash, soliq ob'ektini ob'ektiv ravishda hisobga olishning ko'zdan kechirish asnosida monitoringini tashkil etish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'murchiligini amalga oshirishning uslubiyoti ishlab chiqilgan;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirishning yo'nalishlari ko'rsatib berilgan;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmining ayrim xorijiy davlatlar va O'zbekiston soliq tizimining qiyosiy tahlil qilingan va ulardagi ilg'or tajribalardan foydalanish yo'llari ko'rsatib berilgan;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisobotlarni tahlil qilish asosida soliq nazoratini amalga oshirish tartibi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Davlat Geologiya va tog'-kon sanoati vazirligi, Davlat statistika agentligi, Soliq qo'mitasi hamda bir qator soliq to'lovchilarning rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq orqali ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini ta'minlashga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslarini boyitish hamda tadqiqotlarning ilmiy apparatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish mexanizmlarini, yer qa'ridan samarali foydalanishda soliq tizimining ta'sirchanligini ta'minlash bilan bog'liq mavjud iqtisodiy muammolarni aniqlash, ularning yechimlari bilan bog'liq ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish, yer qa'ri resurslarini soliqqa tortishga oid qonunchilikni takomillashtirish, tegishli me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yer qa'ridan foydalanishda soliq mexanizmining samaradorligi ta'minlash bo'yicha tadqiqot natijalari davomida ishlab chiqilgan uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

soliq to'lovchi tomonidan qazib olingan tabiiy gazni va (yoki) neftni mustaqil ravishda yoxud qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berish asosida qayta ishlashni amalga oshirgan hollarda soliq bazasi ushbu foydali qazilmalardan olingan mahsulotlarni realizatsiya qilish bahosidan kelib chiqib, ularga soliq to'lovchi tomonidan sarflangan dastlabki ishlov berish, ularni qayta ishlash va transportda tashish xarajatlari chegirib tashlangan holda aniqlash orqali soliq bazasini aniqlash mexanizmini takomillashtirish va byudjetga qo'shimcha mablag'larini jalb qilish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-sonli Qonunida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-iyundagi 18/1-75633-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi yer qa'ridan foydalanishda soliq mexanizmining ta'sirchanligini oshirib, soliq bazasini to'g'ri shakllantirish imkonini bergan;

Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) tasarrufidagi yangi konlar uchun soliq stavkasini amaldagi 7% dan 10% ga qadar oshirish orqali soliqlarning adolatlilik tamoyilini ta'minlash hamda yer qa'ri boyliklaridan milliy manfaatlar yo'lida samarali foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-sonli Qonunida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-iyundagi 18/1-75633-sonli ma'lumotnomasi). Bu taklifning joriy qilinishi asosida soliqlarning adolatlilik tamoyilini qo'llash imkoniyati paydo bo'lgan;

sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh uchun soliq stavkasining pasaytirilishi ta'sirida yuridik shaxslar tomonidan yangi qurilish ob'ektlarining qiymatini kamaytirish, boshqa tomondan, qurilish ishlarini olib borayotgan jismoniy shaxslarning xarid qobiliyatini qisman oshirish orqali milliy iqtisodiyotda sement mahsulotiga bo'lgan talabni soliq mexanizmi orqali tartibga solish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-sonli Qonunida

o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-iyundagi 18/1-75633-sonli ma'lumotnomasi). Bu taklifning amaliyotga joriy qilinishi orqali milliy iqtisodiyotda sement mahsulotiga bo'lgan talabni soliq mexanizmi orqali ta'sir qilish, bozorni tartiblash va aholi real xaridlarining oshishiga imkon bergan;

noruda metallar bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq ma'murchiligini amalga oshirish uslubiyoti yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni o'z vaqtida byudjetga tushishini ta'minlash, bevosita shaklda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bazasini to'g'ri hisoblash, soliq ob'ektini ob'ektiv ravishda hisobga olishning ko'zdan kechirish asnosida monitoringini tashkil etish asosida takomillashtirish taklifi Soliq qo'mitasi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-iyundagi 18/1-75633-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida yer, mol-mulk va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlarni undirish mexanizmini raqamlashtirilib, soliq xodimlarining mehnat sig'imini kamaytirish va real samaradorlikka erishish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi natijalari bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tarkibi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 137 betni tashkil etadi.